Bog‘bondan parvarish ko‘rmasa nihol,
Ulg‘ayib o‘solmas, topolmas kamol!


# TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
11-aprel
N:15
(66816)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi


*Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili*

## MALIKA



Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalaridan yana biri bilan tanishtiramiz.

Qarshi axborot texnologiyalari kasb-hunar kollejining 2-bosqich o‘quvchisi Malika G‘ulomova ustozlari ko‘magida innovatsion va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanib, dars o‘tish uslublarini chuqur o‘rganib kelmoqda.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan o‘tkazilgan «Axborot asri yoshlari» respublika tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib, I darajali Diplomga sazovor bo‘ldi.

Shuningdek, viloyat miqyosida o‘tkazilgan turli madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ham faol ishtirok etib, bir necha marta «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlandi.

Uning internet tarmog‘idagi web saytida yaratgan «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» nomli sahifasi ustozlari va tengdoshlari tomonidan e’tirof etilgan.

Darslar tugagandan keyin ham Malikani kollejda uchratsangiz, ajablanmang. U hali kollej qoshida tashkil etilgan «Informatika» to‘garagi mashg‘ulotlarida qatnashishi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi qoshidagi «Lider qizlar» klubiga yetakchilik qilishi lozim. Darslardan, mashg‘ulotlardan ortib, sportning yengil atletika turi bilan shug‘ullanishga ham fursat topadi.

Mazkur yilimiz Malika uchun omadli keldi.



Olovuddin ORIPOV olgan suratlar



## BU VATANDA AZIZDIR INSON

3-bet

*Mamlakatimizda turli tanlovlar o‘tkazish yaxshi an’anaga aylangan. Ularda faol ishtirok etgan o‘quvchilar qo‘lga kiritayotgan yutuqlar kishini quvontiradi. Muxlislarimiz ham tengdoshlarining bunday ibratli ishlarini doimo hayajon bilan kuzatib boradilar. Bugun sizlarga yana bir ko‘rik-tanlov haqida so‘zlab bermoqchimiz.*

**– Xo'sh, aziz bolalar, mamlakatimizda nechta maktab bor?**
**– 9779 ta**
**– «Kamalak»chilar soni qancha?**
**– Endi bunisini sizdan eshitsak!**
**Hozirda siz kabi, ya'ni mamlakatimizdagi 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan «Kamalak»chilar soni (2 049 562 nafar) ikki milliondan oshdi. Bilasizlar, Respublika «Kamalak» Bolalar tashkiloti o'tgan 2010-yilda juda ko'p tadbirlarni, ajoyib ishlarni amalga oshirdi. Kuni kecha azim poytaxtimizning Hamza tumanidagi 69-maktabda tashkilotning navbatdagi VIII Rayosat yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda hamkor vazirlik, idora va tashkilotlar vakillari, matbuot xodimlari ishtirok etishdi. Biz esa O'zbekiston «Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari, Respublika «Kamalak» Bolalar tashkilotining raisi Odina Jamoldinovadan bu to'g'rida kengroq ma'lumot berishlarini so'radik.**

# «KAMALAK»DA HAMMA BILIMDON





***– Avvalo, «Kamalak» Bolalar tashkilotining o'n yoshga to'lishi bilan qutlaymiz!***

– Rahmat. Shu imkoniyatdan foydalanib, mustaqil O'zbekistonimizning baxtli bolalarini, barcha «Kamalak»chilarni ushbu bayramlari bilan qutlaymiz.

***– Shu yillar mobaynida juda ko'p ezgu ishlar qilindi, ularni birma-bir sanashning iloji yo'q. Ammo siz birinchi bo'lib nimani tilga olgan bo'lardingiz?***

– Albatta, men, avvalo, «Kamalak» Bolalar tashkiloti o'quvchilarning sevimli tashkilotiga aylanganini, uning «Oltin meros», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Ekosan», «Vatanparvar», «Mehr-shafqat», «Umid», «Sog'lom avlod uchun» kabi yo'nalishlarida samarali ishlar amalga oshirilayotganini, har bir sinf, maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika Sardorlarlari hamda Sardorlar Kengashining erishayotgan yutuqlarini, tashkilot o'quvchilarda haqiqiy sardorlik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilayotganligini alohida ta'kidlagan bo'lar edim.

O'quvchilar oldida uchta asosiy vazifa ko'ndalang turadi: sog'liq, bilim va faollik. Har uchchalasi uyg'unlikni tashkil etar ekan, biz ko'zlagan maqsadga erishamiz.



2010-yildan boshlab «Kamalak» bilimdonlari» respublika tanlovini o'tkazib kelyapmiz. Tanlovning quyi bosqichlarida xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan eng zukko, bilimdon va faol «Kamalak»chilar ishtirok etib, o'z bilimlarini, faolliklarini namoyon etdilar.

«Lochin» bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida, tashkilotning an'anaviy IX Anjumani doirasida tashkil etilgan tanlovning Respublika bosqichida bolalar ko'plab do'stlar orttirdilar, sog'liklarini tikladilar.

***– Vatanimizning buguni va ertasi bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish, yosh iste'dodlarni tarbiyalash barchamizning ezgu maqsadimiz. Shunday emasmi?***

– Albatta, bolalar tashkilotining ezgu maqsadi ham bolalarni Vatanning sodiq farzandlari va komil inson etib tarbiyalash, ularning huquq-manfaatlarini himoya qilish, iste'dod va qobiliyatlarini namoyon qilishlari hamda rivojlantirishlarida ko'maklashishdan iborat bo'lib, «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar», «Kamolot»da kamol topdim», «Biz tinchliksevar yurt farzandlarimiz», «Yozni «Kamalak» bilan», «A'lochilar anjumani» kabi barcha loyihalarimiz ana shu maqsadga xizmat qiladi. Shuningdek, hamkor tashkilotlar bilan o'tkazib kelinayotgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali, «Maftunkor ranglar jilosi», «Toshkent quvonchlari» kabi yirik loyihalar ham yosh iste'dodlarni ro'yobga chiqarmoqda.

***– «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida ishtirok etayotgan o'quvchilarni kuzata turib, ulardagi jo'shqinlik, tirishqoqlik, yurtga bo'lgan muhabbat tuyg'ularidan zavq olyapman.***

– Albatta, yildan-yilga festivalning nufuzi va qamrovi ortib bormoqda. O'tgan yili 157 nafar yosh iste'dodlar festivalning g'olibi bo'lishgani e'tiborga loyiqdir.

***– «A'lochilar anjumani» tadbiri ham o'tkazib kelinadi. Bundan asosiy maqsad nima?***

– Anjuman iqtidorli, intellektual salohiyatli, zukko bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni o'z tengdoshlariga namuna qilib ko'rsatish orqali yutuqlarga erishish yo'lida intilishlarini ro'yobga chiqarish, faol shaxsni shakllantirishga hissa qo'shish maqsadida tashkil etiladi. O'tgan yilning 9-11-dekabr kunlarida ana shu nom ostida Namangan shahrida tashkil etilgan anjumanimizda 250 nafar vodiy viloyatlari «Kamalak»chilari, a'lochi o'quvchilar ishtirok etib, unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi «Bola huquqlari to'g'risida»gi Qonun, BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlarining mazmun-mohiyatini bolalarga tushuntirish, sog'lom turmush tarzi, sardorlik qobiliyati, notiqlik mahorati bo'yicha o'quv mashg'ulotlar tashkil etildi.

***– Men sport musobaqalarini ham doimo kuzatib boraman. Ayniqsa, tashkilot tomonidan o'tkazib kelinayotgan sport musobaqalarida ishtirok etgan bolalarning chaqqonligi, epchilligi va sog'lomligi odamni quvontiradi.***

– Albatta, Yurtboshimiz «Bolalar sporti – o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning poydevoridir» deb nomlangan ma'ruzalarida: «... farzandlarimizning sportga qiziqishi va intilishini, kerak bo'lsa, sportga bo'lgan mehrini ayni bolalik davridan uyg'otgan taqdirdagina sport har qaysi odamning hayotida, haqiqatan ham doimiy hamroh bo'lib qolishiga erisha olamiz», deb ta'kidlaydilar. Shunday ekan, sportni ommalashtirish maqsadida sportning futbol, basketbol, shaxmat-shashka, stol tennisi, badiiy gimnastika turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, bolalarni sport seksiyalariga, to'garaklarga jalb qilish, sport inshootlaridan unumli foydalanishlariga, «Laylak», «Chillik», «Besh tosh», «Oq terakmi, ko'k terak...», «Tortishmachoq», «Arg'imchoq», «Quvnoq chavandozlar» kabi ko'plab milliy xalq o'yinlari orqali bolalarni sog'lomlashtirishga asosiy e'tiborni qaratganmiz.

***– Bu ishlar yaxshi, lekin shu bilan birga, tarbiyasi og'ir, nogiron bolalar bilan ishlash qanday yo'lga qo'yilyapti? Yangi loyihalarda bu narsalar ko'zda tutilganmi?***

– Albatta, bu kabi bolalar bilan muntazam ishlash yo'lga qo'yilgan. Tarbiyasi og'ir, ichki ishlar bo'limlarida profilaktika nazoratda turuvchi voyaga yetmaganlarga faol Sardorlar biriktirilgan. Ularning ota-onalari bilan muntazam ish olib boriladi.

Nogiron bolalarni qo'llab-quvvatlash borasida hamkor tashkilotlar bilan tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan, ularga amaliy yordam ko'rsatish, ma'naviy ko'mak berish masalasi faoliyatimizning asosini tashkil etadi.

***– 2011-yildagi loyihalaringiz, rejalaringiz?***

– Bolalarning sevimli tashkiloti «Kamalak» bu yil ham yetti rangda jilolanib, bolalarning ko'nglidan joy topadi, har bir bolaning qalbiga Mustaqilligimizning 20 yilligi, tashkilotning 10 yilligiga bag'ishlangan turli mavzudagi loyihalari bilan kirib boradi. Bularning hammasi yurtimiz bolalarining sog'lom, ilmli, barkamol avlod sifatida shakllanishlariga xizmat qiladi.

***Odina JAMOLDINOVA bilan suhbatni yakunlayotgan paytimizda bizni Sirdaryoga taklif etishdi.***

Guliston shahar qurilish kasb-hunar kollejida «Kamalak» bilimdonlari tanlovining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Sirdaryo tumanidagi 41-maktabning 6-sinf o'quvchilaridan iborat «Bilimdon» jamoasi 1-o'rinni, Oqoltin tumanidagi 8-maktabning 7-sinf o'quvchilaridan tashkil topgan «Kamalak» yulduzlari» jamoasi 2-o'rinni, Mirzaobod tumanidagi 22-maktabning 7-sinf o'quvchilaridan iborat «Kelajak nihollari» jamoasi a'zolari 3-o'rinni egallashdi.

Tanlovni kuzatar ekanmiz, o'quvchilarning bilimdonligi, tirishqoqligi, eng asosiysi, o'z fikriga ega bo'lib, uni ko'pchilik oldida dadil yoqlay olganlaridan ko'nglimiz ko'tarildi.

**G'OLIBLARNI TABRIKLAYMIZ!**

*O'z muxbirlarimiz*

# BU VATANDA AZIZDIR INSON

Boshi 1-betda











29-30-mart kunlari poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida tadbirkor, fermer va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiluvchi an'anaviy «Tashabbus – 2011» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Muhtasham saroy oldida turgan, yurtimizda ishlab chiqarilgan uchta oppoq «SPARK» yengil avtomashinasiga hamma havas bilan boqardi.

Surxondaryo viloyatidagi «Bog'-u bo'ston» fermer xo'jaligi tashkil etgan ko'rgazmani tomosha qilishni boshlaganimizda esa bir hayratimizga o'n hayrat qo'shildi. Hozirgina shoxidan uzilganday tirsillab turgan olma, uzum, behilarni ko'rib, o'zimizni saxiy kuz faslida yurgandek his qildik. Bu ishlar boshida 84 yoshni qoralab borayotgan Nosirxon ota To'raqulov turganini bilganimizda, qoyil-e, deb yubordik. Surxon qirlari bag'ridagi lalmi yerlarda bepoyon bog'lar barpo etgan otaxon suvsiz yerlarda ko'chatlarni undirib olish, ularni suvsizlikdan qurib qolmasligi uchun nimalar qilish lozimligini barcha qiziqqanlarga tushuntirishdan charchamasdi.

Nihoyat, tanlovning g'oliblari ham aniqlandi. Namangan viloyatidagi «Zamin Turkiston» mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari Baxtiyor Umarov «Yilning eng yaxshi tadbirkori», samarqandlik usta kulol Sharif Azimov «Yilning eng yaxshi hunarmandi» yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'ldi. Butun zal intiqlik bilan uchinchi g'olib nomini eshitishga mahtal turgan paytda, «Yilning eng yaxshi fermeri» deb Nosirxon ota To'raqulovning nomi e'lon qilindi. Nazarimizda, o'sha lahzalardagi olqishlar sadosi muhtasham binodan chiqib, butun poytaxt bo'ylab taralgandek bo'ldi.

Yosh do'stlarimiz, siz ham ezgu maqsadlar yo'lida dadil qadamni boshlang. Zero, sizlarni mamlakatimizning mana shunday e'tiroflari, yuksak mukofotlari kutib turgani shubhasiz.

*Yusuf FAYZULLO*

## O'quvchi yon daftariga



### «ZAFARNOMA»-NING TARIXI

*Mavlono Shomiyning ma'lumotiga ko'ra, 804-yili (milodiy 1401-yil 11-avgustdan 1402-yil 1-avgust oralig'i) Amir Temur uni huzuriga chorlab, o'z yurishlari bitilgan yirik asar yozishni, bo'lajak asar sodda, ravon tilda, xalq tushunadigan tarzda yozilishi lozimligini uqtirgan.*

*Asar 1404-yilning bahorida yozib tugallangan.*



### BAYLAQON SHAHRI QURILISHI

*«Zafarnoma» asarida shunday yozilgan:*

*«Amir Sohibqiron Hazrat xohladiki, undan jahonda podshohona asarlar va xisravona yodgorliklar boqiy qolgay, binobarin, Baylaqon yerida bir mavzeda shahar bino qilishga oliy ishorat sodir bo'ldi. Bir shahar tarhini: keng bir devor, chuqur bir xandaq, to'rtburchak shaklida bozor, ko'p uy-joylar, hammom, saroy, maydon va chamanzorlardan iborat edi».*

### AHLI NAG'MA



*Temuriyzoda Bobur Mirzo san'atkorlarni shunday deb atagan. Unga xizmat qiluvchi dastada Ruhdam, Bobojon, Qanbuziy, Qosim Ali, Yusuf Ali Taryokiy, Tengriquli, Abulqosim, Ramazon lo'li degan san'atkorlar mehnat qilishgan. 1505-yilning yozida Kobulga yaqin Chinor bog'idagi suhbatda «G'iyos masxara» degan qiziqchining ham qatnashganligi tilga olinadi.*



Maktab rahbari Shahnoza opa Karimova o'quvchilari bilan chin do'st, eng yaqin sirdosh.

*O'quvchilar, Sizning maktabingizda ham ustozlaringizdan ish amaliyotini o'rganayotgan yosh mutaxassislar bor-a? Biz yaqinda Shayxontohur tumanidagi 20-maktabda bo'lganimizda, ana shunday yosh ustozlarning bolajonligi, bilimga chanqoqligi, yangilikka intiluvchanligiga guvoh bo'ldik. Shu bilan birga, o'z kasbining mohir ustalari, tajribali o'qituvchilar bilan yaqindan tanishdik.*

# ISTIQBOLI PORLOQ YURT

Xalqimizda, yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir, degan naql bor. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyot fakultetining 4-bosqich talabalari yuqoridagi naqlni o'zlariga shior qilib olishgan.

Avval o'rganib, so'ngra o'rgatishga intilayotgan bo'lajak ustozlar Oybek Imomov, Sevara Xudoyberdiyeva kabilarni oz fursatda maktab o'quvchilari yaxshi ko'rib qolishdi. Tinib-tinchimas, ishlab charchamas talabalarning har bir darsi o'quvchilar uchun katta saboq bo'ldi.

Ravshan ota Fozilov maktabda ustozlarning ustozi. Mana, salkam 45 yildirki, otaxon ustoz ko'ksini Xalq ta'limi a'lochisi, Mehnat faxriysi ko'krak nishoni bezab turibdi. Hali ham ushbu maskanda g'ayrat va shijoat bilan faoliyat yuritayotgan keksa pedagogning ish uslubiga havasimiz keldi.

– Ushbu yilni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili deb nomlanishi, ayniqsa, meni yanada quvontirdi. Dars davomida, ayniqsa, o'g'il bolalarni tadbirkorlikka o'rgatishda mehnat darslarining o'rni beqiyos. Ularni duradgorlik, naqqoshlik, haykaltaroshlik kabi qo'l mehnatiga qiziqtirishda oz bo'lsa-da, hissam borligidan mamnunman.





Suratlar muallifi Zuhra MUHSIMOVA

Ustoz Ravshan Fozilov shogirdlaridan mamnun.



*Feruza SOYIBJON qizi,*
*Ma'mura YIGITALI qizi*

# «DO‘MBOQCHA»DA KATTA BAYRAM





*Jasurbek va Sanjarbek erta tongdanoq oyijonisi bilan bog‘chaga yo‘l olishdi. Bu safar ularga singillari Hafizaxon ham ergashdi. Negaki, bugun uning akalari bayramda she’r aytishadi, raqsga tushishadi. Yo‘l-yo‘lakay «Akalayim yodyagan sheyaga qattiqyoq «chapak» chayaman», deya Hafizaxonning sevinchi ichiga sig‘may bordi. Bu bolakaylarning quvonchiga sherik bo‘lish maqsadida biz ham kun davomida ularga hamroh bo‘ldik.*



Olmazor tumanidagi 16-maxsus maktabgacha ta’lim muassasasiga kirib borganimizda, katta-yu kichik «Eng bilimdon tarbiyachi» tanloviga tayyorgarlik ko‘rishayotgan edi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, bellashuvda ishtirok etuvchi tarbiyachilar o‘z tarbiyalanuvchilari bilan davraga kirib keldilar.

Bellashuvda kichik guruh tarbiyachisi Nodira Nurmetova, o‘rta guruh tarbiyachilari Gavhar Boboyeva hamda Barno Xudoyberganova, katta guruh tarbiyachisi Gulchehra G‘ozixonovalar ishtirok etishdi. Tarbiyachilar tanishuv, she’rxonlik va erkin mavzu bo‘yicha bellashib, nafaqat o‘zlarining, balki tarbiyalanuvchilarining ham bilimdon va zukkoliklarini namoyon etdilar.

Tanlovni diqqat bilan kuzatib o‘tirgan hay’at a’zolari bellashuv so‘ngida Gavhar Boboyevani birinchi, Gulchehra G‘ozixonovani ikkinchi, Barno Xudoyberganova va Nodira Nurmetovani uchinchi o‘ringa loyiq deb topdilar. «Eng bilimdon tarbiyachi»lar ota-onalar hamda hamkasblari olqishlari ostida «Faxriy yorliq» va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Jasurbek «Andijon polkasi»ga qoyilmaqom qilib raqsga tushganda, Sanjarbekning tarbiyachi opasi tanlovda 1-o‘rinni olganida, Hafizaxon o‘zi aytganidek hammadan ko‘proq va hammadan qattiqroq qarsak chaldi. Bu qarsaklarga biz ham sherik bo‘lib, tarbiyachi opalarni muvaffaqiyatlari bilan qutladik.

*Gulyuz BAHODIR qizi*



***Kechagina ko‘kdagi to‘lin oyni ko‘rsatib, qani-qani, osmonga qara-chi, o‘g‘lim, u nima ekan, deb so‘raganimda, osmonga bir fursat lol bo‘lgancha qarab turgach:***
***– Chomcha, – deya chuchuk til bilan javob qaytargan o‘g‘lim bugun 16 yoshga to‘libdi.***

# ILM DULDUL OTINGIZ BO‘LSIN!

Vaqtning o‘tishini qarang, bir kiprik qoqquncha 16 yil ortda qolibdi.

Maktabni tamomlash arafasida, qanday kasb tanlash, kelajakdagi orzulariga yetishish haqida o‘ylayotgan bu o‘spirinning xayolidan nimalar o‘tayotgan ekan-a?!

Xo‘sh, uni kelajakda nimalar kutmoqda? Xuddi ertaklardagidek uchta yo‘l...

Borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas, hayot esa ertak emas. Farzandlarimizni mehr bilan ardoqlaymiz, bir tola sochi to‘kilishini istamaymiz. Bas, shunday ekan, yoshlarimiz ongi, shuurini yot g‘oyalar bilan zaharlashga urinayotgan ayrim kimsalar ta’siridan qanday asrash mumkin? Bu borada bizga qanday omillar yordam beradi? Menimcha, avvalo, ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan xalqimizning urf-odatlari, odob va axloqqa doir qarashlari, milliy qadriyatlari, ustozlarning maslahatlari, o‘gitlari yordamga keladi.

Xo‘sh, borsa kelmas qanday yo‘l?..

Bu bilib-bilmay shohona hayot orzusiga berilib, elini, erkini, yor-u birodarlarini, alal oqibatda Vatanini sotayotgan adashganlarning yo‘li...

Bu achchiq haqiqatni farzandlarimiz ongiga singdirish bizning vazifamiz. Zero, hech birimiz farzandlarimizni, «borsa kelmas»ga yuborishni istamaymiz.

O‘z xalqiga, Vataniga xiyonat «borsa kelmas» yo‘li ekan, siz ham ogoh bo‘ling, bu yo‘lga aslo qadam bosmang, o‘g‘lim.

«Borsa xatar» qanday yo‘l ekanligini ta’riflashdan avval sizga maslahatim, avvalo, sabrli va mulohazali bo‘ling. Fikr-u xayolingiz, orzularingiz yuzaki qaraganda pishib yetilgandek tuyulsa-da, aslida ular hali juda g‘o‘r. Shu sababli maslahatlarga quloq tuting.

Qalbingizdagi ezgu niyatlar, orzu-istaklar xuddi urug‘lik uchun saralab olingan don kabidir. Ularni unumdor yerga ekilgunga qadar avaylab-asrash kerak. Aqlingiz, zakovatingiz shu donlarni saqlaydigan bir idish misoli. Shunday ekan, o‘zingizni, aqlingiz va salomatligingizni asrang.

Ortiqcha dabdabaga, spirtli ichimliklarga, narkotik moddalar qabul qilishga, chekishga ruju qo‘yish insonni halokatga yetaklaydi. Natijada, jamiyatdagi o‘z o‘rnini, mavqeini yo‘qotadi. Bu yo‘l «borsa xatar» yo‘lidir. Aqlan va ma’nan zaif inson bilib-bilmay «borsa xatar» yo‘lidan «borsa kelmas» yo‘liga kirib qoladi.

Doimo umrboqiy mezonlarga amal qilib, dunyoga teran nazar tashlang.

Kattalar oldida odob saqlang. Johillardan, bemehr insonlardan chetlaning.

To‘g‘riso‘z, halol bo‘ling.

Ilm-u hunar o‘rganing, ilmli, hunarli kishilarni hurmat qiling.

Ilm duldul otingiz, sabr-qanoat qanotingiz bo‘lsin.

Shu niyatlar bilan Sizga oq yo‘l tilab:

– Ulg‘ayganingiz muborak, o‘g‘lim! – deyman.

*Barno RUSTAMOVA*




# NOVDALARNI BEZAB G‘UNCHALAR...



Navro‘zni biz ham bayram qildik. Sinf xonamizni ajoyib gullar bilan bezadik. Gulqog‘ozlardan rango-rang kapalaklar, chiroyli gullar, maysalar qirqib, devorlarga yopishtirdik. Novdalarga yopishtirilgan qog‘oz-gullar xuddi gullagan tabiiy o‘rik daraxtidek go‘zallik baxsh etib turdi.

Bu ajoyib bahor manzarasini ustozimiz oliy toifali pedagog Gulsum opa Karimova boshchiligida tayyorladik.

Sho‘x-shodon musiqalar ostida bayram boshlanib ketdi. 2-sinf o‘quvchilarining mustaqil ravishda she’r aytib, raqsga tushishlari, burro-burro so‘zlashlari o‘tirgan mehmonlar, pedagoglarda katta taassurot qoldirdi. Ota-onalar esa o‘z farzandlarining zukkoligi, uddaburonligidan juda quvonishdi.

Tadbir so‘ngida maktabimiz rahbari Irina Tokareva barcha yig‘ilganlarni bayram bilan muborakbod etdi.

Men ham shu fursatdan foydalanib, ustozimiz Gulsum opaga uzoq umr, sog‘lik tilayman.

*Guzalya BEKBULATOVA,*
*Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 259-maktabning 2-«G» sinf o‘quvchisi*



# «KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

## tanloviga marhamat!

*«Dunyoda kitobdan yoqimliroq do'st, undan ortiq g'amxo'r yo'q. Unda yuz rohat bor, hech qachon ozor yo'q».*

*Buyuk mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub ushbu fikrlar asrlar osha ham o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmay, tasdig'ini topib kelayotgan asl hikmatlardan biri.*

*Darhaqiqat, insonlarning ma'naviyatli, madaniyatli, ziyoli bo'lib kamol topishida kitobning o'rni beqiyosdir. Tahririyatimizga maktub yo'llayotgan o'quvchilarimiz ham bu fikrni alohida e'tirof etishadi.*

*Shu ma'noda o'quvchilarimiz ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish, yozgi ta'til kunlarining mazmunli o'tishiga hissa qo'shish maqsadida an'anaviy kitobxonlar tanlovini davom ettiramiz.*

*Qadrli kitobsevar bolajonlar, «Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida o'tkaziladigan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanloviga marhamat!*

*Tanlovga o'qigan badiiy kitoblaringiz ro'yxati, suratingiz, maktabdagi eng kitobxon o'quvchi ekanligingizni tasdiqlovchi maktab direktori va sinf rahbaringiz imzosi qo'yilgan tavsifnomani yuborishingiz lozim.*

*Tanlov 1-Oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kunida yakunlanadi. O'ylaymizki, shogirdlar yutug'i ustozlar bayramiga eng qadrli sovg'a bo'ladi.*

*G'oliblar «Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasining «Faxriy yorliq»lari hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.*

*Maktublaringizni tahririyat manziliga yo'llang.*

## KITOB, KITOBXON, KUTUBXONA

Jizzax viloyat markaziy kutubxonasi mas'ul xodimlari tomonidan talaygina ijobiy ishlar amalga oshirilyapti. Kitobxonlarning yoshi, kasbi, qiziqishlariga qarab «Kitob dilga nur beradi», «Badiiy adabiyotlar – milliy g'oya jarchisi» kabi mavzularda suhbatlar, savol-javoblar, kechalar o'tkazib kelinayotgani tahsinga loyiqdir.

Shuningdek, G'allaorol tumanidagi 90-iqtidorli bolalar nafis san'at maktabida ham tez-tez kitob ko'rgazmalari tashkil etilmoqda. Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchilar viloyat kitobxonlar ko'rik-tanlovlarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Bunda kollej kutubxonasi mudirasi Shohida Mansurovaning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Yana bir misol: G'allaorol tumanidagi Mullabuloq qishlog'ida yashab o'tgan Abduqodir ota Sengirovning uyida uy-muzey tashkil etilgan bo'lib, u yerda ko'plab badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnal taxlamlari saqlanyapti.

O'zim ham kitob shaydosiman. Ikki mingga yaqin badiiy kitoblar bo'lgan shaxsiy kutubxonamga o'ttizdan ziyod kasbi va yoshi turlicha bo'lgan kitobxonlar a'zo bo'lishgan. Zero, ko'p kitob o'qigan inson hayotni oson anglaydi.

Xulosa qilib aytganda, kitob, kitobxon va kutubxona o'rtasidagi vosita – zanjirni mustahkamlash orqaligina ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish mumkin.

***Abdulla SAIDOV,***
***Xalq ta'limi a'lochisi***

## MUTOLAA ZAVQI

Buyuklik sari ilk qadam mutolaadan boshlanadi. Shu ma'noda bola qalbida mutolaa ishtiyoqini uyg'otish nafaqat ota-onalar, ustozlar, balki axborot-resurs markazlari xodimlarining ham eng muhim vazifalaridir.

Chust tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 9-umumta'lim maktabida joylashgan axborot-resurs markazi haqida iliq fikrlar eshitgan va bu markaz faoliyati bilan yaqindan tanishish ishtiyoqida yurardim.

Yaqinda ushbu ziyo maskanida bo'lib, u yerdagi o'quvchilar bilan suhbatda bo'ldim.

– Men darsdan bo'sh paytlarimda sinfdosh do'stlarim G'ofir, Saidmuxtor va Shahzodbek bilan bu yerga kelib, yangi badiiy kitoblar va matbuot nashrlarini o'qiymiz, yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va yangiliklar bilan muntazam tanishib boramiz,–deydi maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Akromjon Abdurahimov.–Yaqinda umumta'lim maktablari orasida o'tkazilgan fan olimpiadasining tuman bosqichida biologiya fanidan ishtirok etib, 1-o'rinni egalladim. Buning uchun kitobdan behad minnatdorman.

– Men ikki yildan buyon «Kompyuter – mening hamrohim» to'garagiga qatnashaman, – deydi G'ofirjon Jo'rayev. – Internet tarmog'i orqali Vestminster universiteti haqidagi ma'lumotlar bilan tanishganimdan so'ng, menda ana shu nufuzli oliy o'quv yurtiga kirish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Hozirda ingliz tili, matematika kabi fanlardan to'garaklarga qatnayapman. 9-sinfni tamomlab, Vestminster universiteti qoshidagi akademik litseyga kirish niyatidaman.

– Mening orzuim harbiy zobit bo'lish, – deydi Shahzod Orifjonov. – Bu yerda kompyuter saboqlarini yaxshi o'zlashtirdim. Shuningdek, ikki yildan buyon 15-kollej qoshida ochilgan «Qo'l jangi» seksiyasiga qatnashib kelaman...

Mustaqil O'zbekistonimizning ertangi kuni mana shu baxtiyor va navqiron avlod qo'lida. Ularning dadil va samimiy so'zlarini tinglab, ko'nglimda nainki havas, balki ertangi kunimizga ishonch, farzandlarimiz kamolidan g'urur va faxr tuyg'ularini tuydim.

***Nurulloh ZAYNUTDINOV,***
***jurnalist, xalq ta'limi a'lochisi***



## YOSHIMIZGA MOS BO'LSIN



Biz qanday kitob o'qishimizdan qat'iy nazar, u ma'naviy ongimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shunday ekan, yoshimizga, qiziqishimizga mos, qolaversa, kelajakda tanlagan kasbimizga oid kitoblar o'qisak, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman. Bu borada kutubxonachi opalarimiz bizga yaqindan yordam berishadi. Hozirdanoq ko'proq kitob o'qib, bilimimizni boyitib borsak, kelajakda, albatta, o'z samarasini beradi.

***Aziza ABDUVALIYEVA,***
***Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 78-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi***

## TAFAKKUR MEHNATI



O'quvchilarning yozgi ta'til kunlari arafasida ular bilan suhbatlashsangiz, kimdir oromgohlarda dam olish, yana kimdir sayr-u sayohatga chiqish niyatini bildiradi, xullas, ta'tilni ko'ngilli o'tkazishga harakat qilishadi. Shunda o'rinli bir savol tug'iladi: yoshlarimiz ta'til kunlarida kutubxonalarga ham borishadimi?



Oddiygina ko'ringan bu savolga javob berishda ko'pchilik biroz o'ylanib qolishi tabiiy. Chunki ta'til faqat dam olish uchungina beriladi, uni o'yin-kulgu, sayr-u sayohatlar bilan o'tkazish kerak, deb o'ylaydigan tengqurlarimiz ham topiladi. Ayrimlar buni internet kafelar soni ortib borayotgani, oynayi jahonda ko'ngilochar ko'rsatuvlarning ko'payib borayotgani bilan izohlashadi.

To'g'ri, biz texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda yashayapmiz, texnik vositalarsiz bugun hayotimizni tasavvur qilish mushkul. Ularni o'rganmay turib chuqur bilimga ega bo'lish qiyin, albatta. Shuningdek, asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan bilimlar xazinasi bo'lgan kitoblarni ham o'qimay turib, mukammal ilmga ega bo'lish amri mahol. Zero, kitob yoshlar ongining o'sishiga, fikrlash doirasining kengayishiga, dunyoqarashi va ma'naviyatining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul yozganidek: «Dunyoda kitobdan yaxshi do'st, beg'araz musoxib va malolsiz yo'ldoshni topish qiyin. Kitobxonlik tafakkur mehnati va ma'naviy o'sishning bosh shartlaridan biri. Kitob o'qimaydigan millatning ahvoliga har qancha achinsa arziydi».

Bu fikrga qo'shilgan holda tengdoshlarimni yana bir bor kitobxonlikka chaqiraman.

***Madina O'RINBOYEVA,***
***Jizzax shahridagi 22-ixtisoslashgan maktab o'quvchisi***

## QAYTARISHNI UNUTMANG

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida ko'plab moddiy, ma'naviy, madaniy yodgorliklar yaratilgan. Ana shunday ma'naviy yodgorliklardan biri bu kitobdir. Kitob to'plash, uni avaylab-asrash an'anasi hozirgi kunga qadar davom etyapti. Kitoblar asosan kutubxonalarda tartib bilan saqlanadi. Keling, dastlab «kutubxona» so'zining ma'nosini chaqib ko'raylik. Bu forscha so'z bo'lib, «kitoblar saqlanadigan joy», «kitoblar uyi» degan ma'nolarni bildiradi.

Xo'sh, tengdoshim, siz kutubxonaga a'zomisiz? A'zo bo'lmagan bo'lsangiz, tezroq a'zo bo'ling. Qadim an'analarimizni davom ettirib, kitob to'plashni boshlang. O'zingizning mitti kutubxonangiz bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Birovdan kitob olgan bo'lsangiz, uni, albatta, egasiga qaytarishga odatlaning. O'z navbatida, kitobingizni kimga berganingizni ham unutmang.

***Nargiza TAJIMURATOVA,***
***Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 1-umumta'lim maktabining «Kamolot» YOIH raisi***

70 yoshli shoirlar

Otash XOLMIRZAYEV

## QUYOSH



Quyosh tafti olamga,
Ato etar jonini.
Kiyintirar hattoki,
Tutar shirmon nonini.

Sayratadi qushlarni,
O't-o'langa berar jon.
Bog'-u rog'lar husni-yu,
Tomirlarga quyar qon.

Falak misli bir dengiz,
Atrofida chayqalar.
Tog' cho'qqisi oq kiyinib,
Ko'k bag'rida yaraqlar.

Tirik jonmas hattoki,
Jonsizi ham olar naf.
Sayyoralar havasda,
Atrofida tortgan saf.

Sabzavot-u paxta, don,
Quyosh taftin gadosi.
Mo'l hosildan olamda,
Shon-shuhratlar sadosi.

Quyosh asli onamiz,
Silar har tong boshimiz.
Quyosh birla yashaymiz,
Ulg'aytirib yoshimiz.



## O'T O'RDIM

O't o'rgani molimga,
Tongda bordim qir tomon.
Menga bo'ldi yordamchi,
Ukam Dilshod, ham Omon.

Ko'm-ko'k dala ko'zimda,
Havasimni keltirar.
Omon bo'lsa o't yulib,
Qopchasini to'ldirar.

Men o'raman barra o't,
Ko'kka yetar g'arami.
Qishda molim semirar,
Mo'ldir rosa darami.

## KAMALAK

– Hoy, dadajon,
Ayting nega,
Hu falakda
Rangli chiziq.
Chiziqlarki
Yetti rangda
Tovlanadi
Juda qiziq.
Dadam kulib
Derlar menga:
– Sirin aytay
Mayli senga.
Yomg'ir yog'sa
Musaffo ko'k,
Sepin yoyar
O'zida yo'q.
Sepi oq-u
Qizil rangda.
Shodmonlikdir
Har bir ongda.
Otin bilsang
Kamalakdir,
Onasi-chi,
Hu falakdir.



## O'Z SO'ZINGIZ BO'LSIN!




**Angrenlik «Yosh qalamkashlar» to'garagi rahbari Muhabbat Abduqodirova iste'dodli shogirdlarining bir dasta she'rlari bilan gazetamizga tashrif buyurdi. Angrenlik bir guruh yosh ijodkor yoshlarning mashqlari bizga ham ma'qul bo'ldi. «Dovon jilg'alari» nomli toplamga jamlangan she'rlarga atoqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev oq yo'l tilab: «Yosh qalam ahllaridan Yo'ldoshbek Madrahimov, Dilhayot Erkinova, Namuna Asomova, Muxlisabonu Alisher qizi, Isomiddin Mamadullayev hamda Muqaddas Aliqulovalarning ijodiy urinishlarini tabriklaganimiz holda, ularning o'z so'zi, o'z ovoziga ega bo'lishini tilaymiz», deya tilak bildirgan. Biz ham ijodingizga baraka tilaymiz, angrenlik yosh qalamkashlar!**

## ONAM AYTGAN ALLAMSAN, VATAN!

Ildizlaring ming yillik chinor,
Tog'laringdan to'kilar viqor.
Bobolarim porloq ruhi bor,
Onam aytgan allamsan, Vatan!

Tarixingdan so'zlar g'orlaring,
Pahlavon Mahmudlar – orlaring,
Har dam meni o'zing chorlading,
Qo'shig'imsan, yallamsan, Vatan!

Ko'nglim bilan tutash minorlar,
Mehring menga eng zo'r tumorlar.
Seni anglolmaganlar – xorlar,
She'rlar yozgan qalamsan, Vatan!

**Muqaddas OQMAMATOVA,**
**akademik litsey talabasi**

## SHE'R YOZSAM...

Orzuim shu bir she'r yozsam-u
Har ko'ngilga malhamlar bo'lsa.
Shodon ko'ngil yana shodlansa
G'am chekkanlar g'amni unutsa.

Bir she'r yozsam havasga emas,
Malham bo'lib, zo'r davo bo'lib.
Davralarda bir nafasgamas,
Tashnalarga suv-havo bo'lib.

Bir she'r yozsam, yolg'ondan emas,
Yuragimning bo'laklaridan.
Bir she'r yozsam, men yerga tushib,
Xayollarning falaklaridan.

**Namuna ASOMOVA,**
**8-umumta'lim maktabining**
**6-«A» sinf o'quvchisi**

## GUL



Atirgulga, rayhonga
rahmim kelar,
Odamlardan gohida
qahrim kelar.
Ko'rmaydimi ko'zlari,
ko'ngli to'lmasmi,
Shu gullarni uzmasdan
hidlab bo'lmasmi?

**Madinabonu BAXTIYOR qizi,**
**33-maktabning 5-sinf o'quvchisi**

# QIZ TALASHGAN O'SMIRLAR

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

## MUHABBAT MAVSUMI

### 1-Qism

### I bob



Olloh bu yurtga mustaqillik degan ne'matni ato qilgandan buyon bir tomoni adirli tog'larga, yana bir tomoni cho'llarga ulanib ketadigan Tagob qishlog'ida uyqusirab yotgan insonlar birdan uyg'ongandek bo'ldi. Tadbirkorlik, fermerlar harakati, xususiy ishbilarmonlik deysizmi, shunaqa avj olib ketdiki, ta'riflashga so'z ham ojizlik qiladi. Yigitlar belini mahkam bog'lab, qo'liga tupurib, imkoniyat axtarishga tushgan, ayollar qozon-tovoqni yig'ishtirib bozorga yugurgan, kampirlar eski-tuski quroqdan yakandozlar yasab pullashga kirishgan, chollar eski mis qumg'onni chegalatib xaridor axtargan, voy-bo', o'smirlar-u bo'yi yetgan qizlarni aytmaysizmi?! Bittasi velosiped tuzatadigan ustaxona ochib, ustaxonasiga buzuq velosiped kelmay jig'ibiyroni chiqqan, bittasi o'n ikkita buzoq boqib, buzoqlari semirib, sotilib ketguncha erkagi qanaqa bo'ladi-yu, urg'ochisi qanaqa bo'ladi, ana shuni bilmay qolgan, bilmagani uchun o'zini emas, dadasini ayblab yurgan. To'qqizinchi sinfni bitirguncha faqat a'lo baholarga o'qigan Qumrinisa qizaloqlarga ko'ylak, kofta tikaman deb oldirgan mashinasi ip chaynayotgani uchun Amerika-yu Xitoy, Yaponiyaga, «Mashinalaring sifatsiz ekan», deb to'xtatmay xat jo'natib turgan.

Lekin qishloqning ko'pchilik o'smirlari hali uyquda, bir xillari mudrab ham yurishibdi. Qobil degan sho'x-shaddod o'smirning onasi u kun bo'yi to'p tepib yuravergani uchun qulog'idan cho'zib, «Voy, bolam, sen qachon odam bo'lasan?» deb yig'lagan emish. Qishloq markazida ochilgan pullik kompyuter xonasida ko'zini lo'q qilib, qulog'ini ding qilib, olti soatlab g'alati-g'alati tomoshalardan boshini ko'tarmaydigan bir bola dadasi eshikdan kirishi bilan derazadan tashlab qochgan emish.

Xullas, qishloqda qiziq-qiziq gaplar, mish-mishlar, haqiqatga yaqin keladigan voqealar ko'p. Rasuljon degan miyasi yaxshi ishlaydigan bir o'smir g'alati kashfiyot yaratibdi. Tog' tomondan to'rt-beshga bo'linib, jildirab qo'shiq aytib tushadigan buloq suvini birlashtirib, shovullab tushadigan holatga keltirib, qo'lbola tegirmon yasab olibdi, butun qishloq unga qoyil qolibdi. Beva onasi ikkovlari hozir tegirmonchilik qilishayotgan emish. Yana qiziq gaplardan biri shuki, bir o'smir yigitcha urishqoq xo'rozlarga ishqiboz ekan. Tushiga nuqul dakang xo'rozdan ham novcharoq xo'rozlar kirarkan. Toshkentga, Urugvay degan mamlakatning elchixonasiga borib, «Sizlarda urishqoq xo'rozlar ko'p bo'larkan, kinoda ko'rdim, uch marta ko'rdim, o'z ko'zim bilan ko'rdim, menga o'sha xo'rozlardan olishimga yordam bering», deb yolvoribdi. Ehtimol, ko'z yoshi ham qilgandir. Elchi janoblari avvaliga rosa kulibdi, qotib-qotib kulibdi, chunki Urugvay Urugvay mamlakati nomini olganidan buyon hech kim bu mamlakatga xo'roz so'rab murojaat qilmagan ekan.

(Davomi bor)




*Qadrli sportsevar bolalar! «Do‘stingiz kim?» nomli yangi loyihamiz ish boshlaganidan xabaringiz bor-a? Mazkur sahifa orqali biz sizlar bilan oyda bir marta uchrashishimizni ham unutmagan bo‘lsangiz kerak?! Keling, yana sahifamizda sport olamiga sayohatimizni davom ettiraylik. Menimcha, bugungi sayohat davomida aslo zerikib qolmaysiz. Boisi, yana millionlar o‘yini — futbol haqida fikrlashamiz.*



# FUTBOL OLAMIDA NIMA GAP?

*Hademay, Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligini qarshi olamiz. Shu o‘tgan fursat ichida mamlakatimizda turli jabhalarda keng ko‘lamli islohotlarning quloch yozganligini faxr bilan e’tirof etamiz. Qo‘lga kiritgan eng katta yutuqlarimizdan biri har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish ishiga munosib hissa qo‘shayotganimizdadir, desak yanglishmaymiz.*

*Yutuqlarimiz haqida tezroq gapira qoling, ular nimalardan iborat, deysizmi? Bo‘lmasa, hikoyamizga quloq tuting:*

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-yanvardagi 23-sonli «Futbol bo‘yicha bolalar va o‘smirlar sport maktablari moddiy-texnika bazasini yaxshilash va faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari» to‘g‘risidagi Qaroridan barchangiz birdek quvonib yurgandirsiz-a?*



*Respublikamiz viloyatlari hamda Toshkent shahridagi ko‘plab bolalar-o‘smirlar futbol maktablari byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi saqlangan holda professional futbol klublari ixtiyoriga o‘tkazildi. Bundan maqsad nima? Bu futbolimizda qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin, degan savolni o‘rtaga tashlaydi.*

## BU SO‘ZNI YAXSHI BILASIZ

*Sizga ma’lumki, «professional» futbol klublarida professional murabbiylar va professional futbolchilar faoliyat ko‘rsatishadi. Bu so‘z yuksak mahorat ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Biz sizga professional so‘zining mag‘zini kengroq ma’noda tushuntirib o‘tishni joiz deb topdik. Bolaligidanoq futbol sirlarini o‘rganib chiniqqan bolakaylar, shubhasiz, kelgusida mohir futbolchi bo‘lib yetishadilar. Ular yirik xalqaro turnirlarda o‘z klublari, qolaversa, Vatanimiz sharafini munosib himoya etadilar. Quvonarlisi shundaki, bugun professional futbol klublarimiz qoshidagi maktablar, futbol akademiyalarimizda minglab iqtidorli bolalar tarbiyalanmoqda. Bu esa umidli sportchilarimiz Braziliya, Argentina, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Angliya kabi dunyoning yirik futbol industriyalari tomon shaxdam odimlayotganidan darak beradi. Ayni paytda Toshkent shahridagi «Bunyodkor», «Paxtakor», Qashqadaryo viloyatidagi «Nasaf», «G‘uzor», futbol akademiyalari va klublari hamda Andijon shahridagi ixtisoslashtirilgan futbol maktab-internati xalqaro andozalarga mos holda faoliyat ko‘rsatmoqda.*

*Mazkur futbol maktablaridagi yetarli shart- sharoitlar iqtidorli futbolchi bolalar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beryapti.*

## UYG‘ONGAN UMIDLAR

*Yurtimizda futbolchi bo‘lishni ixtiyor etgan bolalarning son-sanog‘i yo‘q, desak adashmaymiz. Ammo ularning hammasi ham futbolchi bo‘lib yetisharmikan?! Dastlab klublarimizning zaxira, so‘ngra asosiy tarkibidan joy ola bilisharmikan? Nima uchun bunday savol ko‘ndalang bo‘lyapti? Sababi, bu borada yechimini kutayotgan bir qator muammolar borligidan ko‘z yuma olmaymiz. Futbol maktablari, futbol akademiyalarida tarbiyalanayotgan ayrim bolalar va o‘smirlar muayyan yoshga yetganlarida, aniqrog‘i, kollejlarga kirish vaqtida futbol bilan xayrlashmoqda. Birgina Toshkent shahridagi futbol maktablari va futbol akademiyalarida turli yoshdagi guruhlarda jami 400 nafar bolalar futbol bilan shug‘ullanishadi.*

*Bir vaqtlar Gollandiyaning «Ayaks» klubi o‘ziga xos futbol «inkubatori» sifatida dunyoga mashhur edi. Yoki Italiyaning «Inter» jamoasi o‘z futbol akademiyasida ko‘plab mohir futbolchilar tarbiyalanyapti.*

*Bugun yurtimizda bolalar futbolini rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlar bizda ham ana shunday umidlar uyg‘otmoqda. Futbolimiz kelajagi bugun futbol bilan oshno tutinib, qalbida olam-olam orzular bilan yashayotgan bolalarimizga ham bog‘liq. Bizda esa ularning kelgusida yetuk futbolchi bo‘lib, yurtimiz dovrug‘iga dovrug‘ qo‘shishlariga qat’iy ishonch bor! Qolaversa, unutmang, SPORTdek chin DO‘STINGIZ yoningizda!*

**Ma’mura MADRAHIMOVA**





# IBRAT

*O'tgan yili Navro'z bayrami kunida dugonalarim bilan bir voqeaning guvohi bo'lgan edik.*



Ozoda yo'lakdan tamaki chekkancha kelayotgan ikki o'smirga oltmish yoshlardagi kishi: – Norasida bo'la turib uyalmaysizlarmi, bolalarim, chekish uyat-ku?! – dedi.

O'smirlar uyalganlaridan qo'llaridagi tamakini yerga tashlashdi.

– Farrosh mehnatini qadrlash kerak. Yerdan olib, qutiga tashlanglar, bolalarim, – dedi otaxon yana ularni uyaltirib.

O'smirlar noiloj yerga engashishdi.

Men qiziqib otaxonni gapga tutdim:

–Bahor kunlarida shahrimiz juda go'zallashib ketadi. Hozir indamasangiz, ana u bolalar toza yo'lakka tashlab ketishardi tamaki qoldiqlarini. E'tiborli bo'lsak yaxshi-da!

Qariya menga yuzlandi:

– Bir hikoyat bor, qizim:

Emishki, savdogarlar birinchi marta bozorga tamaki olib kelganlarida, bir donishmand odamlarga: «Tamaki sog'liq uchun zararli», degan ekan. Bozori kasod bo'lgan savdogarlar donishmandga iltimos qilib, tamaki haqidagi fikrini o'zgartirishini so'rabdilar. Shunda u: «Xaloyiq, tamaki chekkanlar qarimaydilar, ularni it qopmaydi, uyiga o'g'ri tushmaydi», debdi.

Shunda donishmanddan: «Bu nima deganingiz, sal avval, tamaki chekmang, degan edingiz-ku?!» deb so'rashibdi. Donishmand: «Tamaki chekkan – hassaga tayanib qoladi, hassali kishini it qopmaydi. Chekkan odam doim yo'taladi, o'g'ri uy egasi bedor ekan, deb o'ylaydi va kirmaydi, chekkan odam qarimay, o'lib ketadi», debdi.

Qariyaning bu hikoyati sizga ham ibrat bo'lsin, o'smir!

***Nargiza ABDULLAYEVA***

# YAXSHI KITOBLAR BOR

***Omon Muxtor bobongizning «Stariy sunduk» («Eski sandiq») ertaklar to'plami G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan 3 ming nusxada chop etildi. «Eski sandiq»da nimalar bor ekan? Bir o'qib ko'ring: ham til o'rganasiz, ham hayot tajribangiz oshadi.***




*Yosh iste'dodlarga chinakamiga havasimiz keladi. Ular uchun ijod eshiklari keng ochiq, yozganlari paydarpay chiqib turibdi, hatto kitoblari ham nashr etilmoqda. Qo'limizda «Muharrir» nashriyoti tomonidan 2011-yilda chop etilgan ijodkor yoshlarning chiroyli muqovali she'riy kitoblari: Sherzod Rajabovning «Mezon», E'zoza Fazliddinovaning «Kamalak jilosi», Kamol O'sarning «Zokirjonning xayoli» nomli to'plamlari hamda Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi 6-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining o'quvchilaridan 8 nafar yosh qalamkashning ijod namunalari «Ilk parvoz» to'plamidan o'rin olgan. Bu ular uchun ham, kitobxonlar uchun ham durustgina sovg'a bo'ldi.*











*Kitob aqlni charxlaydi, hayotdan baxt topishda yordam beradi. Bu kitoblarni o'qing! Sizga tengdoshlaringiz ijodi, albatta, ma'qul bo'ladi.*

# OY



Hamma uxlar, sen bedor,
Tunni tongga ulaysan.
Hech kimga bermay ozor,
Zamin yuzin silaysan.

Bog'-u rog'larni kezib,
Tongda horib qolasan.
Quyosh chiqsa ohista,
Uyingga yo'l olasan.

***Mo'tabar ZUBAYDILLA qizi,***
***Sirdaryo viloyati, Guliston shahri***

# KEL, DO'ST BO'LAYLIK!



Men sinfdoshim Baxtin haqida yozmoqchiman.

U yuvvosh, kamsuqum, biroz qo'rqoqroq bola. Yaqinda uning vijdonli bola ekanligiga guvoh bo'ldim.

Bir kuni dadam menga pul berdilar. Katta tanaffusda qarasam, pulim yo'q. Baxtin pulimni topib olgan ekan, kelib menga uzatdi. Shunda u bilan yanada qalinroq do'stlashib olgim keldi.

Baxtinning o'rnida boshqa bola bo'lganida, menga pulimni qaytarib bermasligi ham mumkin edi-ku.

Darslar tugab, uyga qaytayotganimda ham Baxtinning halolligi haqida o'yladim.

Bolalar uni sababsiz xafa qiladilar, ruchkasini olib qo'yishadi. Bu Baxtinning yuragiga qattiq botadi. Biroq, u haqiqiy o'g'il bola, hech qachon yig'lamaydi.

Endi men Baxtingga o'z do'stligimni taklif qilaman.

***Azizjon SAIDOV,***
***poytaxtimizning Hamza tumanidagi***
***152-maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi***

# ORZULAR QANOTIDA



*Orzularim juda ko'p,*
*Do'xtir bo'lib qolsammi?!*
*Elimga xizmat qilib,*
*Duosini olsammi?*

*Yoki bo'lsam uchuvchi,*
*Oyga qarab uchardim.*
*Bulutlarni siypalab*
*Yulduzlarni quchardim.*

*Vatanim bayrog'ini,*
*Ko'zga surtgim keladi.*
*Faxrlanib ko'tarsam*
*Dil quvonchga to'ladi.*

*Bolalar havas qilsin,*
*Onalar havas qilsin.*
*Mening zukkoligimni,*
*Hamma do'stlarim bilsin!*

***Davronbek ERGASHEV,***
***Qarshi shahri, Navoiy nomli***
***2-maktabning 4-«G» sinf***
***o'quvchisi***

# BUVIJONIM



Biz oilamiz bilan shaharchada istiqomat qilamiz. 82 yoshli Zaynab buvim esa amakim bilan qishloqda yashaydilar. Ularni qishloq ahli juda hurmat qilishadi.

Buvim biznikiga kelsalar, juda xursand bo'laman. Chunki ular bizga ertaklar, rivoyatlar, afsonalar aytib beradilar. Shu tufayli adabiyotga mehr qo'ydim. Buning uchun buvijonimdan juda minnatdorman.

***Shahlo IBROHIMOVA, Jizzax viloyati,***
***Zarbdor tumanidagi 1-umumta'lim***
***maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi***

# NAVRO'ZDA BELLASHDILAR

Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 14-maktabda ham «Assalom, Navro'zi olam!» tadbiri bo'lib o'tdi. Maktab o'quvchilari o'zlari tayyorlagan bayram taomlari, har xil sahna ko'rinishlarini namoyish etishdi.

Tadbir yakunida hakamlar xulosasiga ko'ra, 8-«B» sinf o'quvchilari milliy taomlar tanlovi bo'yicha, 8-«G» sinf o'quvchilari gazetalar tanlovi bo'yicha, 9-sinf qizlari esa «Eng latofatli, eng zukko», «Eng faol ishtiroki uchun» nominatsiyalarida g'olib chiqishdi.

Varraklar saylida esa 6-«V» sinf o'quvchisi Nodir Sunnatov varragi eng balandga uchdi.

***Mavluda SAMANOVA,***
***direktor o'rinbosari***

Tong yulduzi

BOSH MUHARRIR:
**To'lqin HAYITOV**

**Muassislar:**
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizaynerlar:
**Fazliddin SHOYODGOROV,**
**Olovuddin ORIPOV**
Navbatchilar:
**Feruza SOYIBJON qizi,**
**Yusuf ABDULLAYEV**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
**Tel: 244-27-25, 244-63-08**
**Tel./faks:**
**(99871) 244-38-10**

**«O'zbekiston»**
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
**ISSN 2010-6092**
**Adadi - 70433**
**Buyurtma N: J 1503**